


2019 yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rolo'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019 yil 1 iyun holatiga ko'ra, 23,6 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 14,7 mingga yaqin korxona va tashkilotlar jalb qilingan.


**2019 yil 1 iyun holatiga korxona va tashkilotlarning
umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan
tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 9,9 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini

tashkil etadi. 2019 yil 1 iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 67,3 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 iyun holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (38,1 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3078,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,5 %), transport xizmatlariga (22,3%), moliyaviy xizmatlarga (14,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,5 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 504,5 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-aprel oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 660,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (200,3 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (151,1 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (111,3 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (15,3 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 128,0 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 88,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 164,3 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 24,1 mlrd. so'mga oshgan.


**2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|---------------------|---|
| Xizmatlar - jami | 3078,8 | 109,7 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 168,6 | 112,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 456,9 | 151,5 |
| Transport xizmatlari | 685,5 | 104,5 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 637,4 | 100,7 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 90,6 | 101,4 |
| Savdo xizmatlari | 969,8 | 102,4 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 99,2 | 101,0 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 98,1 | 121,1 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 38,1 | 128,2 |
| Ijara xizmatlari | 84,8 | 96,8 |
| Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 108,8 | 100,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 114,5 | 102,2 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 40,1 | 118,2 |
| Boshqa xizmatlar | 123,8 | 101,8 |

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (151,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (128,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,1 %),

me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (118,2 %) xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan kamayish sur'ati ijara xizmatlarida (96,8 %) kuzatildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (101,8 %), shaxsiy xizmatlar (102,2 %), komp'yuterlar va maishiyyetovarlarni ta'mirlash buyicha xizmatlar (100,2 %), kuchmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (101,0 %) va yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,4 %) va transport xizmatlar (104,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-may oylarida uning ulushi 31,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (22,3 %), moliyaviy xizmatlar (14,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,5 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 969,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 128,0 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-may oylarida uning ulushi 82,8 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidi

bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,2 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2019 yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 168,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 35,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshlari aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 456,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 151,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (93,2%) tashkil etadi.

2019 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-may oylarida ta'llim sohasidagi xizmatlar hajmi 98,1mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 121,1 % tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 90,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,7 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,3 % ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 205,1 ming so'mga oshib, 956,3 ming so'mga teng bo'lди. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 140,1 ming so'mga farq qildi.